



4-DARS
PERSONAL PRONOUNS
KISHILIK OLMOSHLARI

Ingliz tilida **personal pronouns** deganda kishi (shaxs)ni o'rniga ishlatiladigan olmoshlar tushuniladi.

Masalan:

John is my brother. He is my brother

(John mening akam. U mening akam)

Bu yerda John ot bo'lsa, He uning o'rnida ishlatilyapti. Ya'ni shaxs o'rniga qo'llanilmoqda.

Children are playing in the garden. They are playing in the garden.

(Bolalar bog'da o'ynashyapti. Ular bog'da o'ynashyapti).

Ingliz tilida 3ta shaxs mavjud. I-shaxs so'zlovchi, II-shaxs-tinglovchi, III-shaxs boshqa, suhbatga aloqasi bo'lmagan odam

Birlikda (Singular)

I-shaxs I – men

II-shaxs you – sen, siz

III-shaxs he, she, it – u

Ko'plikda (Plural)

I-shaxs we – biz

II-shaxs you – sizlar

III-shaxs they – ular















Listen and repeat.



Singular	Plural
I	we
you	you
he, she, it	they



Biz **he** deb faqat **erkak kishi** yoki **og'il bolaga**, **she** deb faqat **qiz** yoki **ayolga**, **it** deb esa **narsa buyum** va **jonivorga** nisbatan ishlatamiz. O'zbek tiliga **u** deb tarjima qilinadi. Ko'plik shaklida esa hammasiga faqatgina **they** (ular) qo'llaniladi.

People	Animals	Things
He / She	It	It
		
		
		
		

To be fe'li

To be fe'li *bo'lmoq, hisoblanmoq* degan ma'noni bildiradi yoki o'zbek tilidagi *-man, -san, -dir* qo'shimchalariga to'g'ri keladi. To be fe'lini asosan *ot, sifat, son* bilan ishlatiladi.

To be fe'lining **3 ta** shakli mavjud. Ular shaxslarga qarab tuslanadi. Bular: ***am, is, are***

Biz doimo I-shaxs ya'ni *I* bilan to beni ***am*** shaklini ishlatamiz.

II-shaxs ***you*** bilan esa ***are*** ni

III-shaxs ya'ni ***he, she, it*** bilan esa ***is*** ni qo'laymiz.

Ko'plikda barcha shaxslar ya'ni ***we, you, they*** ga ***are*** ishlatamiz.

I am a pupil. *Men* o'quvchiman. (ot bilan)

He is 18 years old. *U* 18 yoshda(*dir*). (son bilan)

This flower is beautiful. *Bu gul* chiroyli(*dir*). (sifat bilan)

To be ni qisqartma shakli.

Ingliz tilida to be ni qisqartma shakli ko'p uchraydi. Bular:

I am – I'm

You are – You're

He is – He's

She is – She's

It is – It's

We are – We're

They are – They're

To be ning inkor shakli.

To be ni inkor shaklini yasash uchun to be dan keyin **not** yuklamasi qo'yiladi.

I am **not** a pupil. Men o'quvchi emasman.

He is **not** 18 years old. U 18 yoshda emas.

They are **not** beautiful. Ular chiroyli emas.

To be ning savol shakli.

Tobening savol shakli yasash uchun To be fe'lini egadan oldinga qo'yiladi.

Masalan:

You **are** a pupil. Sen o'quvchisan

Are you a pupil? Sen o'quvchimisan?

Javob berish: Yes, I am/No, I am not

Task No. 1

Use the correct personal pronouns. Watch the words in brackets.

EXAMPLE:

_____ often reads books. (*Lisa*)

ANSWER:

She often reads books.

1. _____ is dreaming. (*George*)
2. _____ is green. (*the blackboard*)
3. _____ are on the wall. (*the posters*)
4. _____ is running. (*the dog*)
5. _____ are watching TV. (*my mother and I*)
6. _____ are in the garden. (*the flowers*)
7. _____ is riding his bike. (*Tom*)
8. _____ is from Bristol. (*Victoria*)
9. _____ has got a brother. (*Diana*)
10. _____ Have got a computer, Mandy?

Task No. 2

Choose the correct personal pronoun.

1. _____ am sitting on the sofa. (I, They, You)
2. _____ are watching TV. (He, We, It)
3. Are _____ from England? (He, She, You)
4. _____ is going home. (I, He, We)
5. _____ are playing football. (They, I, She)
6. _____ is a wonderful day today. (He, We, It)
7. _____ are speaking English. (She, We, I)
8. Is _____ Kevin's sister? (She, He, You)
9. _____ are swimming in the pool. (I, She, You)
10. Are _____ in the cinema? (I, She, They)